

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:  
2019-yil\_\_\_\_\_

“Tasdiqlayman”  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
prof. A.Soleyev\_\_\_\_\_ -  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2019-yil

**O'ZBEK ROMANCHILIGI  
FANINING  
ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:100000 –Gumanitar soha  
Ta'lif sohasi:120000 – Gumanitar fanlar  
Ta'lif yo'nalishi: 5120100– Filologiya va tillarni o'qitish  
(o'zbek tili)

**Samarqand – 2019**

## KIRISH

«O‘zbek romanchiligi» o‘zbek adabiyotidagi mavjud romanlarning badiiy-poetik xususiyatlarini, ularning sujet va kompozitsion yaxlitligini o‘rganadi, salkam bir asrlik tarixga ega bo‘lgan janr taraqqiyotini tahlil etadi. Ularning kelib chiqishi tarixi, genezisi, bir birlaridan farqli tomonlari, hozirgi davr o‘zbek adabiyotidagi roman janrining yutuq va muammolari, ijodkorlarning o‘ziga xos uslubi kabilar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

«O‘zbek romanchiligi» fanining ahamiyati bugungacha yaratilgan romanlarning badiiyatini o‘rganish, orqali o‘zbek romanchiligining kompozitsion yaxlitligini, undagi davr muammolarining aks etishini o‘rganish jarayonida, jahon adabiyotidagi, bevosita roman janri tarkibidagi badiylikni, unda ilgari surilayotgan global muammolarning talqinidan kelib chiqadigan tushunchalarni ymumlashtirish yo‘llari va usullari haqidagi qarashlarni shakllantiradi. Badiiy asarlarning estetik darajasini aniqlash, romanlardagi tasvirlangan adabiy qahramon va real hayot kishisi o‘rtasidagi farqlarni ajratish kabilar haqida mustaqil fikrlash imkonini beradi. Talabalar bu fanni o‘rganish orqali hozirgi jarayonda yaratilgan asarlarning spitesifik belgilari, o‘zbek romanchiligi, badiiy asarlarning tarkibiy qismlari, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon ruhiyat talqini kabilar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Mazkur fan falsafa, tarix, etika va estetika, san’atshunoslik yo‘nalishidagi fanlar bilan uzviy bog‘langan.

### O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

«O‘zbek romanchiligi» fanini o‘qitishning maqsadi shuki, badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi ko‘nikmalarini hosil qilish, faol ijodkorlik ruhi va mas’uliyatini shakllantirishdan iborat. Shu ma’noda quyidagi vazifalar muhimdir:

- o‘zbek romanchiligidagi yaratilgan asarlarni o‘rganish, tadrijiy taraqqiyotini tushuntirish;

- o‘zbek romanchiligining rivojidagi badiiy estetik talqinlarning o‘ziga xos asosiy tamoyillarini o‘rgatish;

- badiiy asarning ijtimoiy-estetik hodisa sifatida tahlil va talqin qilish usullarini haqida mustaqil fikr yuritish;

- jahon, rus va boshqa xalqlar adabiyotidagi bu janrning o‘zbek romanchiligiga ta’sirini, adabiy aloqalardagi o‘ziga xosliklarni o‘rganilishiga asos bo‘ladi va uning ahamiyatini baholash ko‘nikmasini shakllantiradi va talabada estetik didni, badiiy so‘zni his etish ko‘nikmasini hosil qilishga xizmat qiladi.

### **Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar**

Badiiy adabiyotga jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va manaviy barkamollikka boshlovchi g‘oyalar hamda inson ruhiyatiga aloqador eng pok tuyg‘ular va kechinmalarni in’ikosi sifatida munosabatda bo‘lishga o‘rganish, shuningdek ushbu ijod namunalarini adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtai nazarlar asosida tahlil va talqinn qilish malakasini hosil qilishdan iboratdir. Xuddi shu ko‘nikmalarga asoslangani holda, ma’lum bir romanni badiiy-estetik jihatdan tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi-tilshunoslik, folklor, estetika, falsafa, psixologiya, san’atshunoslik, mantiq, sosiologiya kabi fanlardagi umumiyligini qonuniyatlar bilan bog‘liqligi kuzatiladi.

Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy, mustaqil ta’lim shaklida olib boriladi, shuningdek fanning dolzarb masalalarining ma’lum bir qismi talabalarga mustaqil ish sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fan zamонавиy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o‘tkaziladi va ularning uzviy birligi alohida ta’kidlanish bilan bir qatorda talabada bu haqidagi qarashlarni shakllantiradi.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

Talabalarda o‘zbek romanchiligining tadrijiy taraqqiyoti, bugungi badiiy funksiyasi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish, talqin jarayonidagi falsafiy, modernistic, ramziy-majoziy talqinlar haqidagi qarashlar asosida, adabiyotining muhim davrlari va yo‘nalishlari to‘g‘risida muayyan bilimga ega bo‘lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Romaniy tafakkur xususiyati haqidagi qarashlar asosida olam va borliqni anglashiga asos bo‘ladi.

## **Fanni o‘qitishda zamонавиy axborot va pedagogik texnologiyalar**

“O‘zbek romanchiligi” fanini o‘zlashtirishda o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yanga informasion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko‘rsatilgan mavzular ma’ruza, amaliy mashg‘ulot shakllarida olib boriladi, fanning ba’zi masalalari talabalarga mustaqil ta’lim sifatida o‘zlashtirish uchun beriladi. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Bumerang”, “Matbuot konferensiyasi” singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o‘tkaziladi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni.

Talabalarga mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg‘ulotlarga tayyoragarlik;
- seminar mashg‘ulotlariga tayyoragarlik;
- kurs ishini tayyorlash;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- \* faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- niasofaviy ta’lim.

**joriy nazorat (JN)** — talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, lest o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllardao‘tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** - semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir marta o‘tkaziladi va shakli (test) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha

nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalami talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shakiida o‘tkaziladi.

ON o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o‘tkaziladi.

Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaNni o‘tkazish jarayoni muntazam ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YaN natijalari bekor qilinishi mumkin.

Bunday hollarda YaN qayta o‘tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«O‘zbek romanchiligi” fani bo‘yicha talabalarning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

**Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib  
taqsimlanadi.**

<b>BALL</b>	<b>BAHO</b>	<b>TALABALARNING BILIM DARAJASI</b>
86-100	A’lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohadayurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish,
71-85	yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish,
55-70	qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish.
0-54	qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik. Bilmaslik.

**Izoh:** “O‘zbek romanchiligi” fani qo’shimcha fan sifatida kiritilgab bo‘lib, birga (maksimal 100 ball dan) reyting chiqriladi.

Fan bo‘yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiyl bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisigateng.

ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. YaN semestming oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi. Talabaning semestrda JN va ON turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiylarining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra 3 (uch) a'zodan kam bo'limgan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiy lashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **Talabalarning JN va ONda to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

№	KO'RSATKICHLAR	ON ballari	
		Maksimal ball	Oraliq bali
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlарining yuritilishi va to'liqligi amaliy va seminar mashg'lotlardagi faolligi.	35	0-35
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	7	0-7
3	Mavzularni o'zlashtirish.	38	0-28
	<b>Jami ON ballari</b>	<b>70</b>	<b>70</b>

**Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida bo‘lib, yakuniy nazorat 30 ballik  
“Yozma ish” variantlari asosida o‘tkaziladi.**

№	Ko‘rsatkichlar	YaN ballari	
		Maksimal ball	O‘zgarish oralig`i
1	Fan bo‘yicha yakuniy yozma ish nazorati	30	0-30
	Jami YaN ballari	30	30

Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni. Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshiriladi, sinov ko‘p variantli usulida o‘tkaziladi. Har bir variant 3 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo‘yicha tayanch so‘z va iboralar asosida tuzilgan bo‘lib, fanning barcha mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan.

**Dasturning informasion-metodik ta ‘minoti**

Dasturdagi mavzulami o‘tishda ta’limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning «Muammoli ta’lim» texnologiyasining «Munozarali dars» metodidan foydalanish nazarda tutiladi.

**“O‘zbek romanchiligi” fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar quyidagicha taqsimlanadi:**

№	Mavzular nomi	Jami soat	Ma`ruza	Amaliyot	Mustaqil ish
1	Kirish.Jahon va O‘zbek romanchiligining shakllanishi, taraqqiyot tamoyilari va roman termini haqidagi adabiy qarashlar	10	4	2	4
2	XX asr boshlaridagi o‘zbek romanchiligi		2	2	2
3	40-60-yillar romanchiligi		2	2	2
4	70-80- yillar romanchiligi	10	2	4	6
5	90- yillar romanchiligi va romaniy tafakkur	12	2	2	6
6	Mustaqillik davri romanchiligi	16	2	2	6
7	Polifonik romanlar tahlili	12	2	2	6
8	Istiqlol davri davri tarixiy va badiiylik	14	2	2	4
9	Ma’rifiy romanchilik taraqqiyoti	10	2	2	4
10	Dediktiv romanlar badiiyati	14	2	2	6

<b>11</b>	Fantastik romanlarda shaxs konsepsiysi	<b>10</b>	2	2	4
<b>12</b>	Modernistik romanlar tahlili		2	4	4
	<b>Jami</b>	<b>106</b>	<b>26</b>	<b>28</b>	<b>52</b>

### **Mustaqil ta'lif tashkil etishning shakli va mazmuni.**

“O'zbek romanchiligi” bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'rurasini tinglaydilar, asarlarni tahlil etadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan adabiyotlarni, badiiy asarlarni o'rganadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda ntavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lif natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalami bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlami izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar toplash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil itivislida ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar liyyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, illuming mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas

“O'zbek romanchiligi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha liiavzularihi qamrab olgan va quyidagi ko'rinishida shakllantirilgan.

### **Talabalar mustaqil ta'lifining mazmuni va hajmi**

<b>Nº</b>	<b>Mustaqil ta'lif mavzulari</b>	<b>Berilgan topshiriqlar</b>	<b>Bajarilish</b>	<b>Hajmi (soatda)</b>
<b>1</b>	Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining asoschisi	Mavzu jihatidan tahlil etish	1-2 hafta	<b>2</b>
<b>2</b>	Asqad Muxtorning I «Chinor» romani tahlili	Badiiy asarni o'rganish	2-3 hafta	<b>2</b>

<b>3</b>	O'lmas Umarbekovning «Fotima va Zuxra» 1 romanı	Badiiy asarnı o'rganish	3-4 hafta	<b>2</b>
<b>4</b>	Modernizm va o'zbek romançılığı	Mavzu jihatidan tahlil etish	4-5 hafta	<b>2</b>
<b>5</b>	Odil Yoqubovning «Adolat manzili» romanida ijtimoiy	Badiiy asarnı o'rganish	5-6 hafta	<b>2</b>
<b>6</b>	Luqmon Bo'rixonning «Jaziramadagi odamlar»	Badiiy asarnı o'rganish	6-7 hafta	<b>2</b>
<b>7</b>	P.Qodirovning «Avlodlar dovonı» romanida Humoyun va	Badiiy asarnı o'rganish	7-8 hafta	<b>2</b>
<b>8</b>	«Humoyun va Akbar» romanida tarixiy va badiiy talqin	Badiiy asarnı o'rganish	8-9 hafta	<b>2</b>
<b>9</b>	T.Qayipberganovning «Qoraqlpoqnomá» romanining	Badiiy asarnı o'rganish	9-10 hafta	<b>2</b>
<b>10</b>	L.Bo'rixonning «Jaziramadagi odamlar» romanida obraz	Badiiy asarnı o'rganish	1 -2 hafta	<b>2</b>
<b>11</b>	O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orası» romanida ruhiyat	Badiiy asami o'rganish	2-3 hafta	<b>2</b>
<b>12</b>	Xurshid Do'stmuhammadning «Bozor» romanida ramziylik	Badiiy asami o'rganish	3-4 hafta	<b>2</b>
<b>13</b>	Tog'ay Murodning «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi» romanida konflikt ko'rinishlari	Badiiy asami o'rganish	4-5 hafta	<b>2</b>
<b>14</b>	A.Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida tarixiy	Badiiy asami o'rganish	5-6 hafta	<b>2</b>
<b>15</b>	Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida	Badiiy asarnı o'rganish	6-7 hafta	<b>2</b>
<b>16</b>	Shoyim Bo'taevning “Qo'rg'onlangan oy” romanida	Badiiy asami o'rganish	7-8 hafta	<b>4</b>
<b>17</b>	Muhammad Alining “Sarbadorlar” romanida tarixiy haqiqat va badiiv talqin	Badiiy asami o'rganish	8-9 hafta	<b>2</b>
<b>18</b>	“Qutlug' qon” romanida makon va zamon tasviri	Badiiy asami o'rganish	10-11 hafta	<b>2</b>
<b>19</b>	“Diyonat” romanida Otaqo'zi obrazi talqini	Badiiy asami o'rganish	11-12 hafta	<b>2</b>
<b>20</b>	“Ona lochin vidosi” romanida Gavharshodbegim obrazi	Badiiy asami o'rganish	12-13 hafta	<b>4</b>
<b>21</b>	«Tushda kechgan umrlar» romanida obrazlar tizimi	Badiiy asarnı o'rganish	13-14 hafta	<b>4</b>

<b>22</b>	Syujetda hikoyatlarning o‘rmi	Badiiy asarni o’rganish	14-15 hafta	<b>4</b>
	<b>JAMI</b>			<b>52</b>

## **DARSLIK, ILMIY VA NAZARIY ADABIYOTLAR**

### **I. Rahbariy adabiyotlar:**

- 1.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqımız bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 56.
- 2.Ислом Каримов. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор.-Т.: Ўзбекистон, 2009.

### **II. Asosiy darsliklar:**

3. S.Mirzayev. O‘zbek romanchiligi.-Samarqand. 1999.

### **III. Qo‘srimcha adabiyotlar:**

4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi.-T., «O‘qituvchi»,1986.
5. H.Umurov. Adabiyot nazariyasi.-T., 2002.
6. Aristotel. Poetika.-T.,1980.
7. K.Imomov. O‘zbek xalq prozasi.-T., «Fan», 1988.
8. O‘rta Osiyo va Qozog’iston xalqlari adabiyotidagi roman janrini tipologik o‘rganish.-T., «Fan», 1991.
9. D.Quronov. Cho‘lpon nasri poetikasi.-T., «Sharq», 2004.
10. H. Umurov. Badiiy psixologizm va o‘zbek romanchiligi.-T., «Fan», 1983.
11. H.Umurov. A.Nosirov. «Yulduzli tunlar» va adabiy tanqid.-Samarqand, «Zarafshon», 2000.
12. Z.Pardayeva. O‘zbek romani poetikasi.-T.,2003.
- 13.Z.Pradayeva. Badiiy estetik tafakkur rivoji va o‘zbek romanchiligi.-T., «Yangi asr avlodи», 2002.
14. D.To‘rayev.O‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammozi.-T. «Universitet»,2001.
15. Y.Solijonov. Nutq va uslub.-T., «Cho‘lpon», 2002.
16. O‘zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi.-T., «Fan», 1983.
17. A.Nosirov. Badiiyat va tarixiy haqiqat.-T., «Fan»,2001..
18. A.Kattabekov. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat.-T., «Fan», 1982.
19. A.Raximov. Roman san’ati. Farg’ona, FarDU nashri, 2001.
20. S.Mirzayev. Yangi o‘zbek adabiyoti. T., 2007

- 21.Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. T., 2007
- 22.U.Normatov. Yangi o‘zbek adabiyoti. T., 2008
- 23.A.Rasulov. Badiiylik – bezavol yangilik. T., 2007
- 24.I.Yoqubov. Badiiy estetik so‘z sehri.-T.: 2011
25. P.Alimov. Tarix, shaxs, badia. –T., «O‘zbekiston», 1991.
26. A.Zayniddinova. Tarixiy romanlarda shoxlar timsoli. –T., 1999.